



TOSHKENT SHAHARIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar - oktabr*






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1-oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **13 855** tani tashkil etib, 2022- yil 1- oktabrga nisbatan **2 879** taga kamaygan (o'sish sur'ati **82,8%**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **284** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **13 571** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar- oktabr oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi **60 986,1** mlrd.so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **110,8 %** ga yetdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **27 160,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **123,7 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **33 826,0**mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **102,3 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 559,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **119,5 %**) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – oktabr oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – oktabr oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – oktabr oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahar .	60 986,1	110,8	27 160,1	123,7	33 826,0	102,3
<i>tumanlar:</i>						
Ucntepa	5 237,9	103,5	944,1	109,3	4 293,8	102,3
Bektemir	2 191,6	109,8	375,9	71,7	1 815,7	123,4
Yunusobod	7 081,6	104,4	2 274,4	74,5	4 807,2	128,8
Mirzo-Ulug'bek	4 654,9	117,4	2 507,8	147,9	2 147,1	94,6
Mirobod	4 951,4	118,0	2 980,8	131,6	1 970,6	102,1
Shayxontohur	6 147,2	110,3	3 739,6	151,8	2 407,5	77,5
Olmazor	4 948,7	108,0	2 176,6	102,3	2 772,1	113,0
Sergeli	3 289,7	111,0	1 748,6	136,4	1 541,1	91,6
Yakkasaroy	5 697,9	117,4	2 469,9	155,1	3 228,0	99,0
Yashnobod	5 032,5	113,6	2 231,3	127,1	2 801,2	104,8
Yangihayot	849,0	123,3	461,6	141,7	387,4	106,7
Chilonzor	10 903,9	109,7	5 249,5	130,8	5 654,4	95,4

2023- yilning yanvar – oktabr oylarida 2022- yilning yanvar- oktabr oyiga nisbatan Toshkent shahrining Yangihayot (**142,0 %**), Mirzo Ulug'bek (**119,8 %**), Yakkasaroy (**118,2 %**) va Mirobod (**118,1 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI


Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar - oktabr, mlrd.so'm)



So'nggi **6 yillikda** chakana savdo Tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning mos davriga nisbatan **114,8 %** ni yoki **46 604,8** mlrd. so'mni tashkil qildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda)

(2022- yil, 2023- yil yanvar – oktabr oylari)



2023- yilning yanvar – oktabr oyida o'sish sur'ati 110,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani **17,9 %** bilan **10 903,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Yangihayot tumani **1,4 %** bilan **849,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish kuzatildi.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **33 826,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar – oktabr oylariga nisbatan **102,3** % ga ko'paydi. Toshkent shahar miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **55,5** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar – oktabr oylariga nisbatan **123,7** % ga o'sdi va **27 160,1** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **44,5** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Chilonzor (**16,7%**), Yunusobod (**14,2%**) va Uchtepa (**12,7%**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **44,5 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Chilonzor (**19,3 %**), Shayxontohur (**13,8 %**), Mirobod (**11,0%**), Mirzo Ulug'bek (**9,2 %**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Toshkent shahar	20 407,6	107,5
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	17701,4	101,0
Bektemir	38181,5	101,6
Yunusobod	19113,5	101,9
Mirzo-Ulug'bek	14274,5	114,3
Mirobod	32877,5	115,4
Shayxontohur	16962,4	108,6
Olmazor	12412,0	105,4
Sergeli	19998,3	103,2
Yakkasaroy	43999,1	113,4
Yashnobod	17146,5	109,3
Yangihayot	5111,3	115,0
Chilonzor	39911,7	107,9

2023- yilning yanvar-oktabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 20 407,6 ming. so'mni (2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 107,5 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Yakkasaroy (**43 999,1** ming. so'm), Chilonzor (**39 911,7** ming. so'm) va Bektemir(**38 181,5** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Toshkent shahri bo'yicha 2023 - yilning yanvar - oktabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 559 734,0** mln.so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar – oktabr oylariga nisbatan **119,5 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1 382 645,3** mln.so'mni (**136,8%**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **177 088,7** mln. so'mni tashkil etdi (**115,4 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mln. so'm)



Tumanlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi ulushi, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mln. so'm	2022- yil yanvar – oktabr oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mln. so'm	2022- yil yanvar – oktabr oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mln. so'm	2022- yil yanvar – oktabr oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahar.	1 559 734,0	119,5	1382645,3	136,8	177 088,7	115,4
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	143 078,5	120,0	143078,5	2,8 m.	-	-
Bektemir	482 498,5	2,4m.	305482,9	141,5	177 015,6	115,4
Yunusobod	153 888,2	91,2	153888,2	80,3	-	-
Mirzo-Ulug'bek	243 500,9	185,6	243500,9	177,5	-	-
Mirobod	73 483,9	110,6	73483,9	48,9 m.	-	-
Shayxontohur	166 628,8	137,5	166628,8	91,5	-	-
Olmazor	39 379,5	71,5	39306,4	93,6	73,1	73,1
Sergeli	60 064,0	111,7	60064,0	184,2	-	-
Yakkasaroy	49 569,5	55,3	49569,5	140,4	-	-
Yashnobod	99 259,8	60,7	99259,8	118,3	-	-
Yangihayot	3 330,5	34,5	3330,5		-	-
Chilonzor	45 051,9	40,7	45051,9	179,5		

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;






– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar - oktabr oylarida Toshkent shahrining barcha tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 382 645,3** mln. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**608 162,2** mln. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mln. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	608162,2
	Non va non mahsulotlari	109802,6
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	150676,3
	Tovuq go'shti	154751,7
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	82183,0
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	37778,8
	Tuxum	46987,8
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak	3383,0
	Ziravorlar	99022,7
	Tuzlamalar	34502,9
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	20303,7
	Nooziq-ovqat tovarlari	35090,5

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mln.so'm

2023- yilning yanvar – oktabr oylarida Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tumanida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 177 088,9 mln. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 148 442,9 mln.so'm, qo'y va echkilar – 24 904,0 mln. so'mni, otlar – 3 668,8 mln. so'mni, parrandalar – 73,2mln. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mln. so'm
	2 yoshdan kata bo'lgan qoramollar	119824,7
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	11418,9
	1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	17199,3
	Qo'ylar	24039,5
	Otlar	3247,1
	Echkilar	864,6
	Kurka, o'rdak, g'oz	39,2
	Tovuqlar	33,9
	Quyionlar	-
	Qushlar	-

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 5 503 tani tashkil etib, 2022- yil 1 – oktabr holatiga nisbatan 1 922 taga kamaygan va o'sish sur'ati 74,1 % ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 76 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 427 tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar – oktabr oylarida umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi 6 029,6 mlrd. ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 112,3 % ga o'sdi. Bunda savdo aylanmasining 59,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – oktabr oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – oktabr oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – oktabr oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	6 029,6	112,3	2 435,7	120,9	3 593,9	107,2
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	168,0	115,7	0,8	12,7	167,2	120,3
Bektemir	90,9	107,0	57,4	118,0	33,5	92,3
Yunusobod	840,5	116,5	361,9	165,3	478,6	95,3
Mirzo-Ulug'bek	597,4	107,7	40,5	108,4	556,9	107,6
Mirobod	439,4	105,7	73,7	122,8	365,7	102,8
Shayxontohur	1 692,9	112,6	1 281,2	110,7	411,7	119,1
Olmazor	281,8	111,1	21,0	65,4	260,8	117,7
Sergeli	454,5	130,4	353,3	135,9	101,2	114,0
Yakkasaroy	503,3	109,5	56,5	198,8	446,8	103,7
Yashnobod	409,6	111,2	137,7	111,8	271,9	110,9
Yangihayot	91,3	107,2	-	-	91,3	107,6
Chilonzor	460,0	107,3	51,6	122,3	408,4	105,7

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- oktabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish) 21 956,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan 114,4 % ga o'sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 9 443,4 mlrd. so'm (o'sish sur'ati- 108,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 12 512,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 124,1 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Toshkent shahri	21 956,0	100,0
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	804,7	3,7
Bektemir	1 077,6	4,9
Yunusobod	1 963,1	8,9
Mirzo-Ulug'bek	1 095,8	5,0
Mirobod	1 750,9	8,0
Shayxontohur	2 261,1	10,3
Olmazor	212,5	1,0
Sergeli	6 407,1	29,2
Yakkasaroy	2 154,9	9,8
Yashnobod	1 672,8	7,6
Yangihayot	1 441,7	6,6
Chilonzor	1 113,8	5,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Sergeli (**6 407,1** mlrd. so'm), Shayxontohur (**2 261,1** mlrd. so'm) va Yakkasaroy (**2 154,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Toshket shahar bo‘yicha 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 129 227,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 114,6 % ga o‘sd.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 84 444,3 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 108,2 % ga to‘g‘ri keldi. Toshkent shahrida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 65,3 % ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Mirobod (**26,5 b.**), Bektemir (**26,5 b.**) va Yashnobod (**24,5b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **16 519** tani tashkil etib, 2022- yil 1- oktabr holatiga nisbatan **752** taga kamaygan, o'sish sur'ati **95,6 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **224** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **16 295** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – oktabr oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – oktabr oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – oktabr oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahar .	129 227,2	114,6	44 782,9	128,9	84 444,3	108,2
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	7 878,1	104,9	657,0	80,4	7 221,1	107,9
Bektemir	1 621,4	126,5	154,6	15,3 m.	1 466,8	115,3
Yunusobod	11 292,0	117,3	3 800,5	132,2	7 491,5	110,9
Mirzo-Ulug'bek	10 876,8	108,5	2 471,5	124,2	8 405,3	104,7
Mirobod	15 565,7	126,5	2 783,2	168,6	12 782,5	120,0
Shayxontohur	7 865,6	113,8	2 259,6	114,5	5 606,0	113,6
Olmazor	18 300,7	110,1	8 234,9	117,4	10 065,8	104,8
Sergeli	6 395,2	133,5	3 492,8	2,3 m.	2 902,4	87,9
Yakkasaroy	14 555,7	100,9	5 662,2	107,5	8 893,5	97,1
Yashnobod	17 388,5	124,5	9 843,4	144,8	7 545,0	105,3
Yangihayot	1 125,8	115,0	308,7	127,6	817,1	110,8
Chilonzor	16 361,8	113,8	5 114,4	110,6	11 247,3	115,4



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 71-202-88-21 (20)**